



THE EFFECTIVENESS OF THE BICAMERAL PARLIAMENT SYSTEM IN CENTRAL ASIA IN POLITICAL DECISION-MAKING

Maftuna Kuroloyeva

3rd-year student in International Relations

Uzbekistan State University of World Languages

E-mail: maftunaqurolboyeva237@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: bicameral parliament, Central Asia, Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, political decisions, democratic transformation, legislative process, upper chamber, lower chamber.

Received: 25.06.26

Accepted: 26.06.26

Published: 27.06.26

Abstract: This article provides a comparative analysis of the effectiveness of bicameral parliamentary systems operating in Central Asian states – particularly Uzbekistan, Kazakhstan, and Kyrgyzstan – in the process of political decision-making. The study examines the theoretical foundations of bicameralism, regional practices, and modern democratic transformation processes. The findings indicate that while bicameral systems may in many cases complicate and slow down the legislative process, they play a significant role in protecting regional interests, ensuring the balance of powers, and strengthening democratic oversight mechanisms.

MARKAZIY OSIYODA IKKI PALATALI PARLAMENT TIZIMINING SIYOSIY QARORLAR QABUL QILISHDAGI SAMARADORLIGI

Maftuna Qurolboyeva

O'zbekiston jahon tillari universiteti

Xalqaro munosabatlar yo'nalishi, 3-bosqich talabasi

E-mail: maftunaqurolboyeva237@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ikki palatali parlament, Markaziy Osiyo, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, siyosiy qarorlar, demokratik transformatsiya, qonunchilik jarayonlari, yuqori palata, quyi palata.

Annotatsiya: Ushbu maqola Markaziy Osiyo mamlakatlarida – xususan, O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'izistonda – amal qilinayotgan ikki palatali parlament sistemalarining siyosiy qarorlar qabul

qilishdagi samaradorligini qiyosiy tahlil qiladi. Tadqiqot doirasida ikki palatali tizimning nazariy dalillari, mintaqaviy praktikalar va zamonaviy demokratik transformatsiya jarayonlari o'rganiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ikki palatali tizim ko'p hollarda qonunchilik jarayonlarini murakkablashtirishi va sekinlashtirishi mumkin, biroq u mintaqaviy manfaatlarni himoya etish, vakolatlar muvozanatini ta'minlash hamda demokratik nazorat mexanizmlarini mustahkamlashda asosiy rol o'ynaydi.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДВУХПАЛАТНОЙ ПАРЛАМЕНТСКОЙ СИСТЕМЫ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ПРИНЯТИИ ПОЛИТИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ

Мафтуна Куролбоева

Студентка 3 курса факультета международных отношений

Узбекский государственный университет мировых языков

Электронная почта: maftunaqurolboyeva237@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: двухпалатный парламент, Центральная Азия, Узбекистан, Казахстан, Кыргызстан, политические решения, демократическая трансформация, законодательный процесс, верхняя палата, нижняя палата.

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ эффективности двухпалатных парламентских систем, действующих в государствах Центральной Азии – в частности, в Узбекистане, Казахстане и Кыргызстане, – в процессе принятия политических решений. В рамках исследования изучаются теоретические основы бикамерализма, региональная практика и процессы современной демократической трансформации. Результаты исследования показывают, что двухпалатная система во многих случаях может усложнять и замедлять законодательный процесс, однако она играет важную роль в защите региональных интересов, обеспечении баланса полномочий и укреплении механизмов демократического контроля.

Kirish. Parlament tizimi har qanday demokratik davlatning asosiy siyosiy institutlaridan birini tashkil qiladi. Qonunchilik hokimiyatining tuzilishi, vakolatlari va ishlash tartibi davlatning boshqaruv samaradorligini, demokratik legitimligini hamda siyosiy barqarorligini belgilovchi

omillar sirasiga kiradi. Xususan, ikki palatali (bikameral) parlament tizimi zamonaviy siyosatshunoslikda asosiy tadqiqot obyektiga aylangan, chunki u bir palatali tizimdan farqli o'laroq, qonunchilik jarayonlarini ikki bosqichda amalga oshiradi va bu orqali qonunlarning sifati hamda ko'pchilik tomonidan qabul qilinishini ta'minlashga intiladi.

Markaziy Osiyo mintaqasi mustaqillik yillarida o'ziga xos parlament qurilishi yo'lini bosib o'tdi. O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston kabi davlatlar ikki palatali tizimni qabul qildi, biroq ularning tuzilishi, vakolatlari va amaliy ishlash mexanizmlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu farqlar, o'z navbatida, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlarining samaradorligi, tezligi va sifatiga bevosita ta'sir qiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, Markaziy Osiyoda parlamentarizm rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari hali yetarli darajada o'rganilmagan. Ko'pchilik tadqiqotlar G'arb demokratiyalari misolida ikki palatali tizimni tahlil qiladi, xolbuki mintaqaviy kontekst – tarixiy meros, siyosiy madaniyat, iqtisodiy rivojlanish darajasi va davlat boshqaruvi an'analari – alohida e'tiborni talab qiladi. Shu bois ushbu maqola Markaziy Osiyo davlatlarida ikki palatali parlament tizimining qiyosiy tahlilini amalga oshirish va uning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi samaradorligini aynan baholashga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review) . Ikki palatali parlament tizimiga oid nazariy va amaliy tadqiqotlar XX asrdan boshlab tez sur'atda rivojlana boshladi. Arend Lijphart o'zining fundamental asarlarida konsensual demokratiya nazariyasi doirasida bikameralizmni asosiy demokratik institutlardan biri sifatida ko'rib chiqdi. Uning fikricha, to'liq ikki palatali tizim (strong bicameralism) qonunchilik jarayonlarini murakkablashtirsa-da, u turli ijtimoiy guruhlar va hududiy manfaatlar vakilligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi [1,2].

George Tsebelis va Jeannette Money o'zlarining "Bicameralism" asarida ikki palata o'rtasidagi munosabatlarni o'yin nazariyasi nuqtayi nazaridan tahlil qildi. Ular "veto o'yinchisi" (veto player) nazariyasini ishlab chiqib, ikkala palataning kelishuvi talab etilganda siyosiy o'zgarishlar ancha qiyin amalga oshirilishini ta'kidlagan [3]. Bu nazariy yondashuv Markaziy Osiyo kontekstida ham qo'llanilishi mumkin, chunki mazkur mintaqada ijroiya hokimiyati ko'pincha parlament bilan munosabatlarda ustunlik qiladi.

John Carey siyosiy institutlar barqarorligi va parlament samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, institutsional dizayn qarorlar qabul qilish sifatiga bevosita ta'sir qilishini isbotladi [4]. Uning metodologiyasi ushbu tadqiqotda ham qo'llanilgan, xususan, palatalararo munosabatlar va vakolatlar taqsimotini baholashda.

Markaziy Osiyo parlamentarizmiga oid maxsus tadqiqotlar orasida Luong Kubicek va Fumagalli ishlarini alohida qayd etish lozim [5] [6] [7]. Ushbu mualliflar postsoviet davlatlarda

parlament institutlarining shakllanish jarayonlarini, ijroiya hokimiyati bilan munosabatlarini va demokratik transformatsiya istiqbollari o'rganib, mintaqada parlamentarizm rivojlanishida asosiy to'siqlar mavjudligini aniqladi. Xususan, Luong Markaziy Osiyo davlatlarida parlament institutlarining ijroiya hokimiyati tomonidan nazorat qilinishi tendentsiyasini qayd etdi.

O'zbekiston parlamentarizmiga oid tadqiqotlar orasida Shavkat Mirziyoyev davri islohotlarini tahlil qilgan zamonaviy ishlar asosiy o'rin tutadi. 2017-yildan boshlab O'zbekistonda parlament faoliyatini kuchaytirish, qonunchilik jarayonlarini takomillashtirish va vakillik tizimini demokratlashtirish yo'nalishida bir qator asosiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Biroq adabiyotlarda ushbu islohotlarning ikki palatali tizim samaradorligiga ta'siri hali to'liq o'rganilmagan [8].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot qiyosiy siyosatshunoslik metodologiyasiga asoslanadi. Asosiy tadqiqot metodlari sifatida quyidagilar qo'llanildi:

- 1) Qiyosiy institutsional tahlil;
- 2) Huquqiy-normativ tahlil;
- 3) Statistik-empirik tahlil;
- 4) Ekspert baholash usuli.

Tadqiqot ob'yektlari sifatida O'zbekiston Oliy Majlisi (Senat va Qonunchilik palatasi), Qozog'iston Parlamenti (Senat va Majilis) va Qirg'iziston Jogorku Keneshi (2021-yilgacha – ikki palatali, hozir – bir palatali) tanlandi. Bu davlatlarning tanlanishi bir qancha asosiy sabablarga ko'ra asoslanadi:

- Birinchidan, ular Markaziy Osiyo ning eng yirik va siyosiy jihatdan ta'sirchan davlatlari;
 - Ikkinchidan, ularning har birida ikki palatali tizim tajribasi mavjud yoki edi;
 - Uchinchidan, ular turli institutsional rivojlanish yo'llarini namoyon etadi.
- Ma'lumotlar to'plash uchun esa quyidagi manba va tadqiqotlar qo'llanildi:
- Rasmiy parlament hujjatlari va statistikasi;
 - Qonunchilik jarayonlariga oid tahliliy ma'lumotlar;
 - Xalqaro tashkilotlar (UNDP, IPU, NDI) hisobotlari;
 - Ilmiy maqolalar va monografiyalar;
 - Ekspert intervyulari asosida tayyorlangan ochiq manbalar. Tahlillar davri esa 2000-2024-

yillarni qamrab oladi.

Samaradorlikni baholash uchun quyidagi mezonlar belgilandi:

- Qonunchilik jarayonlarining tezligi va samaradorligi;
- Qabul qilingan qonunlarning sifati va davomiyligi;
- Mintaqaviy manfaatlar vakillik darajasi;
- Ijroiya va qonunchilik hokimiyatlari o'rtasidagi muvozanatlilik darajasi;

- Demokratik nazorat mexanizmlarining ishlash darajasi asosiy standartlar etib belgilandi.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda ikki palatali parlament tizimi 2004-yilda joriy etildi. Oliy Majlisning Senat palatasida 100 ta o'rin mavjud bo'lib, ulardan 84 tasi viloyat va Toshkent shahri kengashlari tomonidan saylanadi, 16 tasi esa Prezident tomonidan tayinlanadi. Qonunchilik palatasi 150 deputatdan iborat bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri saylov orqali shakllanadi. Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonda ikki palatali tizim bir qancha asosiy vazifalarni bajaradi. Birinchidan, Senat mintaqaviy manfaatlarining vakillik organi sifatida harakat qilib, mahalliy hokimiyat va markaziy qonunchilik o'rtasida ko'priklarni o'ynaydi. Ikkinchidan, ikki bosqichli muhokama jarayonlari qonun loyihalarining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Uchinchidan, Senat nazorat vazifasini bajarib, ijroiya hokimiyati faoliyatini parlamentar nazorat ostida ushlab turadi. Biroq tadqiqot bir qancha muammolarni ham aniqladi. Qonunchilik jarayonlaridagi vaqt xarajatlari sezilarli darajada oshgan: o'rtacha qonun loyihasi Qonunchilik palatasida muhokamadan o'tgach, Senatda yana kamida ikki hafta ko'rib chiqiladi. 2000-2024-yillar davomida Senat tomonidan qaytarilgan qonun loyihalari ulushi umumiy qabul qilingan hujjatlarning atigi 3,2 foizini tashkil qildi, bu esa Senatning amaliy veto imkoniyatlaridan kam foydalanishini ko'rsatadi [9].

Qozog'iston Parlamenti 1995-yildan boshlab ikki palatali tizim asosida faoliyat ko'rsatmoqda. Senat 49 a'zodan (44 tasi hududlardan, 5 tasi Prezident tomonidan tayinlangan) iborat, Majlis esa 107 deputatni o'z ichiga oladi. Qozog'istonning institutsional modelida Prezidentning parlament ustidan kuchli nazorat imkoniyatlari saqlanib qolgan [10].

Qozog'iston misolida ikki palatali tizim parlament va ijroiya hokimiyati o'rtasidagi munosabatlarda aniq bir model namoyon etadi: ijroiya hokimiyati ustunligi sharoitida ikki palatalilik asosan mazmunan emas, balki rasmiyan saqlanib qoladi. Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2010-2023-yillar orasida Senat tomonidan qaytarilgan qonun loyihalari soni jami muhokamaga kiritilganlarning 1,8 foizidan oshmagan [11]. Biroq 2019-2022-yillarda amalga oshirilgan siyosiy islohotlar Majlis vakolatlarini kengaytirish va Senatning mustaqilligini oshirish yo'nalishida asosiy qadamlar qo'yilishiga olib keldi. Xususan, 2022-yil yanvar oyidagi voqealardan so'ng amalga oshirilgan konstitusiyaviy islohotlar parlament nazoratini kuchaytirishga qaratilganligi e'tirof etildi.

Qirg'iziston Markaziy Osiyoda parlament tizimining murakkab rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirgan davlat hisoblanadi. 2005-yilgacha bir palatali Jogorku Kenesh faoliyat ko'rsatgan. 2005-2010-yillarda ikki palatali tizimga o'tildi: Jogorku Kenesh (yuqori palata, 45 o'rin) va Legislatura Assambleya (quyi palata, 75 o'rin). Biroq 2010-yilgi siyosiy inqirozdan keyin mamlakatda bir palatali tizimga qaytildi [12].

Qirg'iziston tajribasi asosiy siyosiy saboqni namoyish etadi: ikki palatali tizim uchun mustahkam konstitutsional va institutsional asos zarur. Tizimning to'satdan o'zgarishi siyosiy barqarorlikni pasaytiradi va qonunchilik faoliyatida bo'shliqlar paydo bo'lishiga olib keladi. 2007-2010-yillar davomida ikki palatali tizim sharoitida ko'plab qonun projeklari palatalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar sababli uzoq muddatga kechiktirildi, bu esa mamlakat boshqaruvini qiyinlashtirdi. 2021-yilda yangi Konstitutsiya qabul qilinib, Prezidentlik vakolatlari kengaytirildi va parlament bir palatali tizimga qaytarildi. Bu qaror Qirg'izistondagi siyosiy elita orasida ikki palatali tizim samaradorligiga nisbatan yuzaga kelgan skeptik munosabatni aks ettirdi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilar ekanmiz, Markaziy Osiyo davlatlarida ikki palatali tizimning samaradorligi bir qancha omillarga bog'liqligi ma'lum bo'ldi. Bu omillar ichida eng asosiylari quyidagilardan iborat:

- Birinchi omil – hokimiyatlar muvozanati. Ikki palatali tizimning demokratik samaradorligi ko'p jihatdan palatalar o'rtasidagi va parlament bilan ijroiya hokimiyati o'rtasidagi haqiqiy vakolatlar muvozanatiga bog'liq. Markaziy Osiyo davlatlarida ijroiya hokimiyati an'anaviy ravishda kuchli bo'lgani sababli, parlament palatalari ko'pincha ijroiya hokimiyati qarorlarini tasdiqlash mexanizmi sifatida faoliyat ko'rsatishga majbur bo'ladi [13]. Bu holat ikki palatali tizimning nazariy afzalliklarini amalda cheklaydi.

- Ikkinchi omil – mintaqaviy vakillik. Yuqori palatalarning mintaqaviy manfaatlarni ifodalashdagi roli Markaziy Osiyo kontekstida alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda Senat viloyatlar manfaatlarini yuqori darajada himoya qilish imkoniyatiga ega, chunki har bir viloyat senatorlari o'z hududining muammolarini markaziy qonunchilik jarayonlariga olib kiradi. Biroq amalda bu imkoniyat to'liq ro'yobga chiqmayapti, chunki mintaqaviy siyosatchilar ko'pincha markaziy hokimiyatdan mustaqil ravishda harakat qila olmaydi.

- Uchinchi omil – qonunchilik sifati. Ikki bosqichli qonunchilik jarayonlari qonun matnlarining sifatini oshirish uchun nazariy imkoniyat yaratadi. Senat tomonidan qaytarilib, qayta ishlangan qonunlar ko'pincha yanada mukammalroq va muvozanatli chiqadi. Ammo bu jarayonlar vaqt xarajatlari bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa favqulodda vaziyatlarda operativ qarorlar qabul qilishni qiyinlashtirishi mumkin.

- To'rtinchi omil – institutsional barqarorlik. Qirg'iziston tajribasi ko'rsatdiki, parlament tizimini o'zgartirish siyosiy inqiroz sharoitida amalga oshirilganda, yangi tizim ko'zda tutilgan samaradorlikka erisha olmaydi. Ikki palatali tizim barqaror siyosiy muhitda, mustahkam demokratik madaniyat zaminida eng yaxshi natijalarni ko'rsatadi.

- Beshinchi omil – xalqaro tajriba va integratsiya. Markaziy Osiyo davlatlari G'arb demokratiyalari parlamentarizmi tajribasidan foydalanishga intilmoqda, biroq bu tajribani

to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib olish ko'pincha samarasiz bo'ladi. Mintaqaviy o'ziga xoslik, tarixiy meros va siyosiy madaniyat institutsional islohotlarning muvaffaqiyatini belgilovchi hal qiluvchi omillar hisoblanadi.

Umumiy baholash nuqtayi nazaridan, Markaziy Osiyoda ikki palatali tizim qonunchilik jarayonlarida ma'lum darajada demokratik nazoratni ta'minlash, mintaqaviy manfaatlarni himoya qilish va qonun sifatini yaxshilash kabi ijobiy natijalarga olib kelmoqda. Biroq mavjud institutsional cheklovlar, ijroiya hokimiyatining kuchli ta'siri va demokratik madaniyatning hali to'liq shakllanmagan bo'lishi tizimning to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ushbu dalillar Markaziy Osiyo davlatlarida ikki palatali parlament tizimining siyosiy qarorlar qabul qilishdagi samaradorligini qiyosiy tahlil etdi. Olingan natijalar quyidagi asosiy xulosalarga olib keladi:

- Birinchidan, ikki palatali tizim Markaziy Osiyo davlatlarida ma'lum darajada samarali ishlaydi, biroq bu samaradorlik tizimning nazariy salohiyatidan ancha past bo'lib qolmoqda. Buning asosiy sababi ijroiya hokimiyatining parlamentga nisbatan asosiy xususiyatga egaligi va institutsional mustaqillikning cheklanganligi hisoblanadi.

- Ikkinchidan, O'zbekiston va Qozog'iston tajribalari ko'rsatdiki, ikki palatali tizim mintaqaviy manfaatlarni markaziy siyosiy jarayonlarga jalb etishda asosiy mexanizm bo'lib xizmat qilishi mumkin, biroq buning uchun yuqori palataning haqiqiy mustaqilligini ta'minlash zarur.

- Uchinchidan, Qirg'iziston misolida ko'rib turilganidek, parlament tizimini ikki palatalilikdan bir palatalilikka o'zgartirish siyosiy barqarorlikni oshirishga emas, balki boshqa muammolarni vujudga keltirishga olib kelishi mumkin. Bu esa institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishda ehtiyotkor va izchil yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

- To'rtinchidan, tahlillar shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo davlatlarida ikki palatali tizimning samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlar bo'yicha islohotlar zarur: masalan, palata mustaqilligini kuchaytirish, deputatlar kasbiy salohiyatini oshirish, qonunchilik jarayonlarini shaffof qilish va jamoatchilik nazoratini kengaytirish hisoblanadi.

Hozirda ikki palatali tizimning fuqarolik jamiyati bilan o'zaro ta'sirini o'rganish va raqamli texnologiyalar asosida parlamentar faoliyatni modernizatsiya qilish imkoniyatlarini tahlil qilish, shuningdek, mintaqaviy integratsiya jarayonlarida ikki palatali parlamentlar rolini baholash juda ham muhim jarayon bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lijphart A. Democracies: Patterns of Majoritarian and Consensus Government in Twenty-One Countries. New Haven: Yale University Press.1984. – P. 23-27.
2. Lijphart A. Patterns of Democracy: Government Forms and Performance in Thirty-Six Countries. New Haven: Yale University Press.1999. – P. 17-21.
3. Tsebelis G., & Money J. Bicameralism. Cambridge: Cambridge University Press.1997. – P. 34-47.
4. Carey J. M. Legislative Voting and Accountability. Cambridge: Cambridge University Press. 2009. – P. 74-81.
5. Luong P. J. Institutional Change and Political Continuity in Post-Soviet Central Asia. Cambridge: Cambridge University Press. 2002. – P. 68-69.
6. Kubicek P. Organized Labor in the Post-Communist States: From Solidarity to Infirmity. Pittsburgh: University of Pittsburgh Press. 2004. – P. 91-94.
7. Fumagalli M. Framing Ethnic Minority Mobilisation in Central Asia. Europe-Asia Studies, 59(4), 567–590. 2004. – P. 79-80.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Toshkent: O'zbekiston. 2023-yil yangi tahriri.
9. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senat palatasiga oid ma'lumotlar. <https://senate.oliy-majlis.uz>
10. Qozog'iston Respublikasi Parlamenti rasmiy sayti. <https://www.parlam.kz>
11. IPU Parline Database on National Parliaments. <https://data.ipu.org.>, 2024.
12. UNDP. Parliamentary Development in Central Asia: Assessment Report. New York: UNDP. 2022.
13. Shugart M. S., & Carey J. M. Presidents and Assemblies: Constitutional Design and Electoral Dynamics. Cambridge: Cambridge University Press. 2023. – P. 147-149.
14. NDI. Democratic Governance in Central Asia. Washington: National Democratic Institute. 2023.
15. Arugay A. A. Bicameralism in Asia: Revisiting Comparative Models. Asian Journal of Political Science, 2009. – P. 1–22.